

MEHMED II FOTIH VA UNING KONSTANTINOPOLNI EGALLASHI

Abdiyeva Setora Ilyos qizi

QarDU talabasi

Annotatsiya: Dunyoni titratgan buyuk shaxslar ko‘p. Masalan Aleksandr Makedonskiy, Amur Temur, Chingizzon, Muhammad Xorazmshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarni aytishimiz mumkun. Men shulardan biri bo‘lgan Usmoniyalar Sultoniga buyuk urushlarga boshchilik qilgan, mamlakatni rivojlantirgan eng buyuk ishlaridan yana biri Konstantinopol zabit etgan buyuk sarkarda Mehmed II Fotih haqida aytib o‘tmoxchiman.

Kalit so‘zlar: Mehmed II Fotih, Konstantinopol, Vizantiya, Avliyo Sofiya, Usmoniyalar, Anatoliya, Sultan, Qo‘shin.

Abstract: There are many great people who shook the world. For example, we can say Alexander the Great, Amur Temur, Genghis Khan, Muhammad Khorezmshah, Zahiriddin Muhammad Babur and others. I would like to mention one of them, Mehmed II the Fatih, the great general who conquered Constantinople, who led great wars and developed the country.

Key words: Mehmed II the Conqueror, Constantinople, Byzantium, Saint Sophia, Ottomans, Anatolia, Sultan, Army.

Mehmed II Fotih Murod II ning 4-farzandi. U 1431 yil 30-aprelda Andirianopolda tavallud topgan. Turk, arab, fors, yunon, slavyan tillarini bilgan. Turk qo‘shinlarining yurishiga shaxsan qo‘mondonlik qilib, jahongirlik siyosati yurgizgan. Zamondoshlari xotirasida ko‘ra, Usmonli Sultan Mehmed II aqli va kuchli, lekin bir vaqtning o‘zida juda maxfiy, oldindan aytish qiyin va qarama-qarshi siyosatini etakchi qodir bo‘lgan edi. U hukmdor bo‘lgan paytda poytaxt Edernada edi

keyinchalik u poytaxtni ko‘chiradi va usmoniyalar qonunlarini tuzgan 1-hukmdor sifatida usmoniyalar tarixiga muhrlanib qoladi. Mehmed ul-Fotih davrida Usmonli turk imperiyasining ilk qonunlar majmuasi («Qonunnoma») tuzgan. Mehmed ul-Fotih harbiy va ma‘muriy boshqaruv islohoti o‘tkazib, armiya va davlatni mustahkamlagan. U olim va fuzalolarga homiylik qilgan, qurilish ishlariga katta e‘tibor bergan, hukmronligi davrida mamlakatda 380 ta masjid qurdirgan, Istanbul universitiga asos solgan. Fotih Sulton Mehmed ul-Soni Fors, yunon va arab adabiyotini yaxshi bilgan, o‘zi ham «Avniy» tahallusi bilan she‘riy devon bitgan. Birodarkushlikni ham u joriy qiladi.

Mehmed II Fotih 1451-yil 18- fevralda taxtga o‘tirdi. U otasidan ancha yaxshi holatda bo‘lgan imperiyani meros qilib oldi.o‘z otasi Murod II dan taxtni qabul qilib olganda imperiya oldingiday ikkiga bo‘lingan edi. Qadimiy musulmonlar yerlari – Anatoliya Yaqin Sharq Islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylangan edi. Yaqindagina qo‘lga kiritilgan Rumeliya avvalgi taassurotlari va chegara hududi aholisi urf-odatlari, shuningdek eklektik din va qalandarlik afsonalari bilan yashar edi. Ularning orasida Bursadagi eski poytaxt va Edernadagi yangi poytaxt ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak edi. U ichki va tashqi bosimlarga qaramasdan, mustaqil siyosat olib bordi. Mehmed II ning eng katta orzusi bor edi, ya’ni xristianlikning yuragi bo‘lgan Konstantinopoli zaft etish edi. Lekin uning davlat a’yonlari bu yurushga qarshi edi. Ayniqsa uning bosh va’ziri CHandarli Halil poshsho eng katta qarshiligini ko‘rsatadi. Mehmed II bu yurishni amalga oshirish uchun bir o‘zi harakat qildi va o‘z maqsadiga erishdi. Jang karamanda turib amalga oshirildi. u suv yo‘lini nazorat qilish va Vizantiyaning Qora dengiz bilan aloqalarini uzish hamda o‘tishni taminlash uchun Bosforning Yevropa tomonidan shahardan 10 mil shimolda Rumeli hisori qal’asini qurdi. Yangi qal’a bitishi bilan Mehmed II Konstantinopoli qamal qilishni boshladi. Shu bilan birga Venetsiya bilan savdo aloqalar yangilandi. Vengriya bilan bitim tuzdi. Shu paytda ham bosh vazir yurishga qarshilik qildi. Haqiqiy yurish 1453-yil fevralda Edernadan yuborilgan birinchi Usmonli qo‘shini Marmar dengizi bo‘ylab Vezantiya portlarini egallay boshlandi va shaharning buyuk

devorlariga hujum qilish uchun katta to‘plar Frakiya orqali uloqtirildi. Mart oyida Onaduludagi qo‘sishnlari bosfor bo‘g‘ozini kesib o‘tib yangi Rumeli hisoriga yetib bordi Galipolida qurilgan armada esa Dardanel orqali Marmara dengiziga o‘tib shaharga dengiz orqali hujum qila boshladi bu paytda vizantiya ichki siyosiy kurashlar ichida qolgandi.Qamal 1453-yil 6-apreldan 29-maygacha 54 kun davom etdi.18-aprelda Usmoniyalar armiyasi Marmara dengizidagi barcha orollarni egallab oldi.2 kundan so‘ng 4 ta lotin kemasi va 1 ta yunon kemasi usmoniyalar qo‘sishidan qochib vizantiya himoyichilariga ko‘p miqdorda yuk olib keldi,bu ularning ruhini ko‘tardi.21-apreldan 22-aprelga o‘tar kechasi usmoniyalar floti 1 qancha qayiqlarni Galata tepaligidan pastga olib tushishdi.Yakuniy hujum 28-mayga o‘tar kechasi usmoniyalar floti vizantiyaga bostirib kirdi, bu paytda imperator o‘ldirilga edi.Usmoniyalar qo‘sini shaharga kirdi islom qonunlariga ko‘ra faqat qattiq qarshilik ko‘rsatganlargina o‘ldirildi. Tinch axoliga tegilmadi. Mehmed II shahar buzilmasligi uchun qo‘lidan kelganini qildi. Qamal paytda betaraf qolgan Genuya koloniyasi bilan Zaganos shartnomasi tuzildi unga ko‘ra, Galata usmoniyalar tarkibiga qo‘sildi, mudofaa buzib tashlandi. Evaziga axoli mulkclarini saqlab qoldi. Mehmed II konstantinopolni zaft etishi katta strategik ahamiyatiga ega edi chunki buyuk savdo yo‘li va ma’muriy harbiy baza ham shu yerda joylashgan edi. Konstantinopol buyuk usmoniyalar poytaxtiga aylantirildi va unga Istanbul nomi berildi. Avliyo Sofiya cherkovida birinchi nomoz o‘qildi va sherkov masjidga aylantirildi. Mehmed II o‘zini nafaqat Rimni balki butun dunyoni vorisi sifatida ko‘rdi.

Mehmed ul-Soniy 10 yildan ziyod muddat davomida Karaman beyi hamda Oq qo‘yunli davlati hukmdori Uzun Hasanga qarshi siyosiy kurash olib borib butun Kichik Osiyoda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan. 1475 -yil Mehmed ul-Soniy Kafa, Kerch, Sudak singari Qora va Azov dengizi bo‘ylaridagi shaharlarni istilo etib, Qrim xonligini o‘ziga vassal qilgan. 1461 y. savdo yo‘lidagi muhim yunon davlati Trapezund (Trabzon)ni jangsiz egallagan.Turk qo‘sishlarining zafarli yurishlari Mehmed ul-Soniyni Yevropaning Vengriya, Italiya, Germaniya kabi davlatlari hududlarini ham istilo qilish rejasini tuzishga ruhlantirgan. 1480 y. 300 kemaga

joylashgan 100 ming nafar qo'shin Jan. Italiyaning Otrango sh. tomon yo'l oladi va uni 2 haftalik qamaddan so'ng qo'lga kiritgan. Shahar aholisining yarmi qirib tashlanib, 8 minggi qulga aylantirilgan. Shunga qaramay, Mehmed ul-Fotihning ushbu yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Italianlar kuchlarini bir erga jamlab turklarga bir qancha kuchli zarbalar berishgan.

Mehmed ul-Fotih harbiy yurish paytida og'ir betoblanib vafot etgan. Ayrim manbalarda sulton o'g'li — taxt vorisi Boyazid ul-Soniylar buyrug'iga muvofiq, xos tabibi tomonidan zaharlab o'ldirilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Usmoniyalar imperiyasini yuksalish, turli yerlarni bosib olish aynan Mehmed II Fotih davriga to'g'ri keladi. Bu hukmdor qatiatligi, aqilli, zukko, ilmliligi va mohir sarkardalik qobiliyatları bilan boshqalardan ajralib turgan. Uning davrida fan, madaniyat, san'at yuqori darajada rivojlandi. Aholi hayoti kesin tarzda yaxshi tarafga o'zgardi. U ota bobolariga munosib usmoniyalarning yetuk hukmdori bo'la oladi va avlodlariga xususan o'g'li Boyazidxoniga yetuk va rivojlangan katta xududlarni meros qilib qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. A. Abdullayev, Z.M .Qodirov, X.X.Xamidov va boshqalar "Turkiya tarixi" 2018 yil Toshkent
2. Stanford. J. Shaw "HISTORY OF THE OTTOMAN EMPIRE AND MODERN TURKEY"
3. ASIROG'LÜ, O'RHAN GÄYİ TARIHİN ŞAHİTLERİ DİZİSİ BURAK YAYINEVİ İSTANBUL 1992)
4. FINKEL, CAROLINE OSMAN'S DREAM: THE HISTORY OF THE OTTOMAN EMPIRE ... BASIC BOOKS, 2007
5. O'ZBEKİSTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI 2000- 2005